

**TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLAR VA
ULARNING VOYAGA YETMAGAN FARZANDLARIGA
PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI**

Tirkasheva Dinoraxon Shuaxratjon qizi

Farg‘ona viloyati Buvayda tumani

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ko‘rsatiladigan psixologik yordamning dolzarbligi, mazmuni va ta‘hiri tahlil qilingan. Ruhiy zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar va bolalarning psixologik salomatligini tiklashda mutaxassislarning reabilitatsiya faoliyati, psixoterapiya usullarining samarasi va mavjud muammolar muhokama etilgan. Xalqaro va mahalliy tajribalar solishtirilib, O‘zbekistonda bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tazyiq, zo‘ravonlik, psixologik yordam, xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar, reabilitatsiya, ruhiy salomatlik, oilaviy muhit.

Аннотация. В статье анализируются актуальность, содержание и результативность психологической помощи, оказываемой женщинам и их несовершеннолетним детям, подвергшимся притеснениям и насилию. Обсуждается реабилитационная деятельность специалистов по восстановлению психологического здоровья женщин и детей, пострадавших от психологического насилия, эффективность методов психотерапии и существующие проблемы. Сравнивается международный и отечественный опыт, приводятся работы и предложения в этом направлении в Узбекистане.

Ключевые слова: Притеснение, насилие, психологическая помощь, женщины, несовершеннолетние, реабилитация, психическое здоровье, семейная среда.

Abstract. This article analyzes the relevance, content and impact of psychological assistance provided to women and their minor children who have been subjected to oppression and violence. The rehabilitation activities of specialists in restoring the psychological health of women and children who have suffered from psychological violence, the effectiveness of psychotherapy methods and existing problems are discussed. International and local experiences are compared, and work and proposals are given in this direction in Uzbekistan.

Keywords: Oppression, violence, psychological assistance, women, minors, rehabilitation, mental health, family environment.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari keng tarqalgan. Bu holat ularning ruhiy, jismoniy, ijtimoiy va huquqiy holatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bunday muhitda ulg‘ayayotgan farzandlar ruhiy bosim, xavotir, qo‘rquv, tashvish va tajovuzkorlikka moyil bo‘lib ulg‘ayadi. Ruhiy-psixologik yordam ko‘rsatish va zo‘ravonlikdan aziyat chekkanlar uchun maxsus xizmatlarning mavjudligi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omildir. Shu sababli, mazkur maqolada bunday holatlarda psixologik xizmatlarning ahamiyati, mavjud tizim va takomillashtirish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi.

Shuni ham aytish joizki, sog‘liqni saqlash tizimida zo‘ravonlikka nisbatan yondashuv ko‘pincha reaktiv, ya’ni hodisa sodir bo‘lganidan so‘ng unga javob berishga qaratilgan bo‘lib qolmoqda. Bu esa, masalaning ildiziga tushunib yetmasdan, faqat uning tashqi belgilarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Amaldagi tizimda turli sohalar ko‘proq o‘zining tor mutaxassislik doirasida faoliyat yuritgani sababli, zo‘ravonlikning psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy yoki sog‘liq bilan bog‘liq jihatlari bir-biridan ajratilgan holda tahlil qilinadi. Natijada, ushbu hodisaning ko‘p qirrali va murakkab tabiati yetarlicha yoritilmaydi hamda u bilan kurashishdagi tizimli yondashuv sust bo‘ladi.

Zo‘ravonlik — bu faqat alohida shaxslarning muammosi emas, balki butun jamiyat salomatligiga tahdid soluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, sog‘liqni saqlash sohasi ushbu muammoni nafaqat davolovchi, balki oldini oluvchi – profilaktik choralar orqali bartaraf etishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Ayniqsa, xatar ostida bo‘lgan aholining zaif qatlamlariga yo‘naltirilgan profilaktika strategiyalari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi juda muhimdir.

Shuningdek, zo‘ravonlik holatlarini aniqlashda madaniy qadriyatlar, axloqiy-me’yoriy tushunchalar va ijtimoiy normalarning roli katta. Har bir jamiyatda bu tushunchalar har xil shakllangani sababli, zo‘ravonlikning ta’riflari va unga beriladigan baho ham turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli, xalqaro yoki hududlararo darajada solishtiriladigan ishonchli statistik ma’lumotlar yig‘ish uchun yagona, izchil ta’rif va yondashuvlardan foydalanish zarur bo‘ladi.

Zo‘ravonlikning shakllari esa juda xilma-xil bo‘lib, u nafaqat jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikni, balki o‘z joniga qasd qilish, o‘z-o‘zini tahqirlash kabi o‘z-o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi inson ruhiyati va jamiyat salomatligi uchun katta xavf tug‘diradi. Ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik holatlari eng ko‘p uchraydigan shakl hisoblanadi.

Bu turdagi zo‘ravonlik odatda yaqin munosabatda bo‘lgan shaxslar o‘rtasida sodir bo‘ladi va ko‘pincha yashirin, ichki muammo sifatida qabul qilinadi. Uni erta bosqichda aniqlash esa nafaqat jabrlanuvchini asrash, balki zo‘ravonlikning avloddan-avlodga o‘tishining oldini olishga, jiddiy psixologik va ijtimoiy oqibatlarning yuzaga chiqishining oldini olishga yordam beradi.

Shunday qilib, zo‘ravonlikka qarshi kurashish sog‘liqni saqlash tizimida kompleks, tizimli va ko‘p yo‘nalishli yondashuvni talab etadi. Bu borada faqat sog‘liqni saqlash sohasi emas, balki ta‘lim, ijtimoiy xizmatlar, huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilik hamkorligida yagona strategiya ishlab chiqilishi lozim [1; 34,38-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga psixologik xizmat ko‘rsatish masalasi dolzarb ijtimoiy va psixologik muammo hisoblanadi. Ushbu mavzu doirasida tanlangan adabiyotlar muammoning nazariy, huquqiy, statistik va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Mamatova G. X tomonidan yozilgan “Psixologik reabilitatsiya asoslari” asarida zo‘ravonlik qurbonlarining ruhiy holatini tiklash, ularga individual va guruhli psixologik yordam ko‘rsatish bosqichlari yoritilgan. 34–38-betlar orasida aynan ayollar bilan ishlashda psixologning roli, yordam ko‘rsatish usullari bayon etilgan. Bu manba maqola metodologiyasida psixologik xizmat shakllarini asoslash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Norova D. R maqolasida psixologik xizmatning oiladagi roli va ayniqsa, krizis holatiga tushgan ayollar va bolalarning holatini barqarorlashtirishda mutaxassislarning yondashuvi haqida so‘z boradi. Ushbu manba maqolaning amaliy qismida tahlil qilinayotgan voyaga yetmaganlar va onalarga nisbatan ishlatilayotgan usullarni solishtirish imkonini beradi.

Abdullayeva M. M o‘z tadqiqotida travmatik stress holatlarining bolalar ruhiyatiga ta‘sirini yoritadi. Ayniqsa, 47–49-betlarda keltirilgan empirik dalillar maqoladagi voyaga yetmaganlarning psixologik himoyasi bobida qo‘llanildi. Bu manba ilmiy asoslangan statistik ma‘lumotlar va kuzatuv tahlillari bilan ahamiyatlidir.

Biz ushbu tadqiqotimiz uchun quydagi metodologiyadan foydalandik:

- Tahliliy yondashuv orqali mavjud ma‘lumotlar tahlil qilindi.
- Empirik yondashuv asosida reabilitatsiya markazlari, ishonch telefonlari, psixoterapevtlar faoliyati o‘rganildi.
- Solishtirma metod orqali xalqaro va mahalliy tizimlar taqqoslandi.
- Amaliy kuzatishlar va mutaxassislar fikrlari asosida muammolar va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan psixologik yordam ularning ruhiy sog‘lig‘ini tiklash, shaxsiy hayotini barqarorlashtirish hamda kelajakka bo‘lgan ishonchini qayta shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yordam shakllari nafaqat individual tiklanishni ta‘minlaydi, balki ularning ijtimoiy faolligini oshirish va hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ham ko‘maklashadi. Shu bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha tub islohotlar,

huquqiy mexanizmlarning takomillashtirilishi va fuqarolik ongining yuksalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik xizmat esa bu islohotlar zanjirining ajralmas bo'g'inidir.

Zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy shakllari ayollarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy holatlar ularning oila muhitidagi barqarorlikka, mehnat faoliyatiga va farzandlar tarbiyasiga ham zarar yetkazadi.

Ayniqsa, uzoq muddatli ruhiy zarbalar ko'plab psixologik muammolarga sabab bo'lib, post-travmatik stress buzilishi (PTSB), xavotirli holatlar, depressiya va o'z-o'zini qadrlashning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ayollarga ko'rsatiladigan kompleks psixologik yordamning nafaqat individual balki ijtimoiy ijobiy ta'siri ham mavjud bo'lib, u jamiyatdagi sog'lom muhitni shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biridir [6; 45,52-b].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar va ularning farzandlari uchun psixologik yordam hayotiy zaruratdir. Psixologik xizmatlar yordamida ularning ruhiy salomatligi tiklanadi, ijtimoiylashuv darajasi ortadi, o'ziga bo'lgan ishonch qaytadi. Davlat tomonidan bu xizmatlarni har bir hududda tashkil etish, mutaxassislarni ko'paytirish, aholining ruhiy salomatligiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, zo'ravonlikni erta aniqlash, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularni jamiyatga integratsiya qilish tizimi kuchaytirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatova, G. X. (2020). Psixologik rehabilitatsiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi. -34-38-b.
2. Norova, D. R. (2021). Psixologik xizmatning oiladagi roli. Oila va jamiyat ilmiy-amaliy jurnali, 4(1), pp. 21–26.
3. UN Women. (2018). Handbook on Women's Access to Justice Programming. United Nations Publications;18–22.
4. World Health Organization. (2021). Violence against women: prevalence estimates, 2018. Geneva: WHO.
5. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Ayollar va erkaklar teng huquqligi to'g'risida Qonun. Qonun hujjatlari to'plami, №29.-3-6-b.
6. Abdullayeva, M. M. (2022). Voyaga yetmaganlarda travmatik stressning psixologik oqibatlari. Psixologiya fanlari jurnal, 3(2), 45–52-b.